



BUXORO VILOYATIDA SAVDO SOHASI HOLATI TAHLILI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Raxmatov Akmal Anvar o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0004-8327-2702

raanakmal@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Buxoro viloyatida savdo sohasi iqtisodiy ko'rsatkichlarining 2012-2022-yillardagi dinamikasi tahlili keltirilgan. Tahlillar asosida Buxoro viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi, chakana savdo xizmatlari ko'rsatuvchi iqtisodiy subyektlar soni, chakana tovar aylanmasi davri dinamikasiga baho berilgan. Sohada band bo'lganlar sonining kamayishi, import ulushining ortib borish kuzatilgan sharoitda mehnat unumdorligini oshirish, sohaga innovatsiyalarni joriy etish, qo'shimcha savdo servisini tashkil qilish hisobiga savdo xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: savdo xizmatlari, chakana savdo, tovar aylanmasi, eksport va import, intensiv o'sish, ekstensiv o'sish.

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ ТОРГОВЛИ В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Рахматов Акмал Анвар угли

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В статье представлен анализ динамики экономических показателей сферы торговли Бухарской области в 2012-2022 гг. На основе проведенного анализа определена динамика роста объема розничного товарооборота, количества хозяйствующих субъектов, оказывающих услуги розничной торговли, динамика периода розничной торговли и торгового оборота в Бухарской области. В фоне увеличения доли импорта и снижения численности занятых в отрасли, разработаны предложения по повышению конкурентоспособности торговых услуг за счет повышения производительности труда, внедрения инноваций в отрасль, организации дополнительных торговых услуг.

Ключевые слова: торговые услуги, розничная торговля, товарооборот, экспорт и импорт, интенсивный рост, экстенсивный рост.

ANALYSIS OF THE STATE AND DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF THE SPHERE OF TRADE IN THE BUKHARA REGION

Rakhmatov Akmal Anvar ugli

Samarkand Institute of Economics and Service

Annotation. *The article presents an analysis of the dynamics of economic indicators of the trade sector of the Bukhara region in 2012-2022. Based on the analysis, the dynamics of growth in the volume of retail trade, the number of business entities providing retail trade services, the dynamics of the period of retail trade and trade turnover in the Bukhara region are determined. Against the background of an increase in the share of imports and a decrease in the number of employees in the industry, proposals have been developed to increase the competitiveness of trade services by increasing labor productivity, introducing innovations into the industry, and organizing additional trade services.*

Keywords: *trade services, retail trade, trade turnover, exports and imports, intensive growth, extensive growth.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16 fevral 2024 yildagi PF-36-son "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" (Фармон, 2024) Farmoni bo'yicha amalga oshirilgan ahamiyatga molik ishlar, jumladan oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag'larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSH dollaridan va ularning yillik eksporti hajmi 510 million AQSH dollaridan oshdi". Shuningdek, oxirgi uch yilda import o'rnini bosuvchi 75 turdagi 289,9 million AQSH dollari miqdoridagi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublika sanoatida oziq-ovqat sanoati ulushi 14 foizdan 16,6 foizga oshdi. 2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, Buxoro viloyati bo'yicha xizmatlar sohasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi 4 234,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 8,9 % ga o'sdi. Savdo sohasi ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi ayirboshlash bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni aks ettirib aholini zaruriy tovar va xizmatlarga bo'lgan talabini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Savdo sohasining rivojlanish tendensiyasini tahlil qilish va baholash orqali kelgusida o'sishning intensiv va ekstensiv omillarini aniqlash, kelgusida ushbu omillarning samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini aniqlashimizga imkon beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Xorijlik olimlardan Xu Xianxang, Arshadlarning (2021) ilmiy izlanishlarida savdo sohasini rivojlantirish muammolari bayon qilingan bo'lib, chakana savdo xizmatlari "savdo sifatini oshirish, savdo sohasi rivojlanishining sanoatlashuv va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va sinergetika samarasini vujudga keltiruvchi faoliyat" sifatida izoh berilgan.

Nyumen (2005) va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida savdo xizmati "...savdo xodimlari tomonidan iste'molchilarga xarid qilinayotgan tovarga qo'shimcha sifatida taqdim qilinadigan servis majmui" sifatida izohlangan.

Iqtisodchi olim Popov (2011)ning ilmiy ishlarida savdo korxonalarini va savdo shakllarining xilma-xilligi avvalo savdo xizmatlari turlariga bog'liq ekanligi, shu sababli "...tovarlarni sotish jarayoni, ijtimoiy ahamiyati, sotish joyi va vaqti, savdo xodimlarining mehnati xususiyati va davomiyligiga bog'liq holda asosiy va xarid jarayoniga ko'maklashish, axborot-maslahat va iste'molchilarga qulaylik yaratish qo'shimcha savdo xizmatlariga tasniflash lozim" ligi ilgari surilgan.

Gavrilova (2014)ning ilmiy ishlarida xizmat ko'rsatishning tashkiliy-texnologik jihatlarini takomillashtirish savdo xizmatlari misolida ko'rib chiqilib, savdo servisi sifatida savdo zalida ko'rsatiladigan axborot berish, tovarlarni tanlash, merchendayzing va POS-materiallarni samarali joylashtirishdan iborat bo'lgan hamda xaridorlarda tovarga nisbatan ma'lum qo'shimcha qiymat va qadriyat yaratishdan iborat" ekanligi talqin etilgan.

Artikov (2019) tomonidan keltirilgan ta'rifda savdo xizmati "...malakali sotuvchilar tomonidan xaridorlarga ularning ehtiyojlarini qondiradigan tovarlarni sotib olguniga qadar, sotish jarayonida va sotib olganidan keyingi davrda ko'rsatiladigan yuqori darajadagi iqtisodiy faoliyat natijasi" sifatida bayon qilingan.


Muallif (Raxmatov, 2024)ning ilmiy tadqiqotlarida ham savdo sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi, savdo faoliyati bilan bog'liq ko'rsatkichlarning istiqboldagi dinamikasi trend tahlilidan foydalanilib prognoz qilingan, alohida olingan ko'rsatkichlarning tematik prognozlari asosida modeli ishlab chiqilgan hamda optimistik va pessimistik prognoz ssenariylarini ishlab chiqish masalalari yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda induksiya va deduksiya, guruhlash, makon va zamon, analiz va sintez, mantiqiy tahlil, taqqoslash usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarini umumiy yaxlit tarzda ifodalash maqsadida jadval va rasmlardan foydalanilgan. Tadqiqot gipotezasi savdo sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasiga asoslanib rivojlanishining ekstensiv omillaridan intensiv omillarga asoslangan rivojlantirish yo'nalishlarini tanlash maqsadga muvofiqligini asoslantirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Buxoro viloyatida savdo sohasi rivojlanishining ekstensiv omillarini tahlil qiladigan bo'lsak, muhim ko'rsatkichlaridan biri chakana savdo bo'lib, chakana savdo hajmi va dinamikasi, tarkibi va rivojlanish tendensiyasi hisoblanadi. Chakana savdo hajmi va dinamikasi nafaqat Buxoro viloyatida, shuningdek Respublika miqyosida ham ijobiy ko'rsatkichlarga ega. Buxoro viloyati ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosida yetakchi hisoblanib, 2023 yilda uning ulushi hududiy savdo hajmining 66,5% ni tashkil etgan. 2012 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda oziq-ovqat tovarlari savdo hajmi dinamikasining pasayishi kuzatilib, 2017 yilda minimum ko'rsatkich (9,5%dan 0,1%gacha pasaygan. 2018 yildan boshlab barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'lgan (1-rasm).



1-rasm. 2012-2022-yillarda Buxoro viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga o'tgan davr mobaynida chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy o'zgarishi ham ro'y bergan. jumladan, 2018 yildan boshlab, nooziq-ovqat tovarlari savdo aylanmasi ulushini ortishi kuzatilgan (2-rasm).




2-rasm. 2012-2022-yillarda Buxoro viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi dinamikasi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu o'z navbatida aholi turmush farovonligining ortishi bilan izohlanib, oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining pasayishi o'z navbatida aholining turli xizmatlar va nooziq-ovqat tovarlari xaridiga ustuvorlik berilayotganligidan dalolat beradi. Shu boisdan ham oziq-ovqat tovarlari kesimida savdo xizmatlarini kengaytirish, savdo xizmatlari ko'rishga turli omillar ta'sirini baholash lozim bo'ladi.

Savdo sohasining muhim ko'rsatkichlaridan biri aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo hajmini aniqlash hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, 2012-2023 yillarda Buxoro viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan savdo xizmatlari hajmi muntazam ravishda o'sib borgan (3-rasm)¹⁸.




3-rasm. 2012-2023 yillarda Buxoro viloyatida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hajmining o'sish dinamikasi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁸ <https://www.buxstat.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi Buxoro viloyati statistika boshqarmasi sayti.

3-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2012-2018 yillar mobaynida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2,7 marotabaga oshgan bo'lsa, 2018-2023 yillar mobaynida bu ko'rsatkich, 0,66 birlikka pasaygan. Bu aholi jon boshiga to'g'ri keladigan savdo xizmatlari hajmi muntazam ravishda o'sib borishi bilan birga o'tgan davrga nisbatan o'sish sur'ati barqaror saqlanib qolmaganligidan dalolat beradi (3-rasm).


Savdo xizmatlari rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlardan aholining savdo shoxobchalari bilan ta'minlanganlik darajasi hisoblanadi. Buxoro viloyatida tahlil qilinayotgan 2012-2023 yillar mobaynida aholining savdo obyektlari bilan ta'minlanganlik darajasi 10000 nafar aholiga nisbatan 17,6 tadan 382,0 taga yetgan (4-rasm).



4-rasm. 2012-2022-yillar mobaynida Buxoro viloyatida aholining savdo obyektlari bilan ta'minlanganlik darajasi (10000 nafar aholiga nisbatan)

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadqiq qilinayotgan yillar mobaynida Buxoro viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi davri ham sezilarli darajada ortib o'rtacha 9,3 kundan 2023 yilga kelib 49 kunga teng bo'ldi. Bu o'z navbatida tovarlarning muomala davrini kengaytirish hisobiga chakana savdo xizmatlarining intensiv o'sishini yanada rag'batlantirilgan (5-rasm).



5-rasm. 2012-2023-yillar mobaynida Buxoro viloyatida chakana tovar aylanmasi davri dinamikasi (kunlarda)

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Chakana savdo aylanmasida tovar assortimentining kengligi, nomenklaturasining chuqurligi va to'liqligi bois, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni maksimal qondirishga imkon beradigan chakana savdo tarmoqlari soni kengayib bormoqda. 2012-2023 yillarda Buxoro viloyati chakana savdo aylanmasida import va eksport qilingan tovarlar dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak, import hisssasi 58,7% dan 75,7% ga oshgan, bu o'z navbatida hududiy rivojlanish strategiyalarini innovatsiyalarni "o'zlashtirish" tamoyiliga asoslanishiga turtki bermoqda.

Tadqiqot amalga oshirilgan davrda Buxoro viloyati importi va eksporti tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi ham muntazam ravishda ortib borgan. Jumladan, import hajmi 3,1 marotaba, eksport hajmi 4,4 marotaba ortgan. Olingan natijalar asosida Buxoro viloyatida chakana savdo faoliyatini intensiv omillarga asoslangan rivojlantirish yo'nalishlarini tanlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, "...eksport faoliyatini samarali olib borishida raqamli texnologiyalarning va elektron to'lov tizimini, elektron tijorat platformalari (Amazon, e-Bay, Alibaba, Taobabo, Uzum, Olcha) va B2B (Business-to-Business) tarmoqlaridan foydalanish orqali yangi mijozlarni jalb qilish, eksport qilinadigan tovarlarni reklama qilish hamda sotish imkoniyati, shuningdek, O'zbekistondan mahsulotlarni internet-do'konlar orqali bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirmay eksport qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari" lozim (Eshqulova, 2024).

Xulosa va takliflar.

Buxoro viloyatida savdo xizmatlari ko'rsatish holati ko'rsatkichlari va dinamikasi tahliliga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

- Buxoro viloyati savdo sohasida kichik korxonalar sonining kamayishi kuzatilmoqda, bu o'z navbatida tarmoqda raqobat izchilligining pasayishiga olib keladi;

- Buxoro viloyatida savdo sohasida band bo'lganlar sonining kamayish tendensiyasi mavjud, bu o'z navbatida savdo xizmatlari ko'rsatish imkoniyatlarining pasayishiga olib keladi. Shu boisdan mehnat unumdorligini oshirish hisobiga savdo xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishga keng urg'u berish lozim.

- oziq-ovqat mahsulotlari savdo do'konlaridagi mahsulotlarining yaroqlilik muddati kamayib borishi bilan ularning narxini bosqichma-bosqich pasaytirib borish mexanizmi-ni yo'lga qo'yish va savdo xizmati yuqori darajada bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari savdo do'konlariga "Namunali savdo do'koni" logotipini taqdim etish (Mukimova, 2022) va ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali iste'molchilarga keng targ'ibot qilib turish.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Eshqulova, N. (2024). O'zbekiston eksport salohiyatidan samarali foydalanishda kichik biznesning ahamiyatini oshirish yo'llari. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 2(6), 49–59. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss6-pp49-59>

Maxmatqulov G.X. (2023) Aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati, Urganch. UrDU, -11 b.

Raxmatov, A. (2024). Buxoro viloyatida savdo xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari va prognoz parametrlari. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 2(6), 142–148. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss6-pp142-148>.

Xianhang Xu, Mohd Anuar Arshad, Arshad Mahmood (2021) //Analysis on International Competitiveness of Service Trade in the Guangdong–Hong Kong–Macao Greater Bay Area Based on Using the Entropy and Gray Correlation Methods. *Entropy (Basel)*. Oct; 23(10): 1253.

Артиков З.С. (2020) *Савдо хизматини такомиллаштириш орқали аҳоли ҳаёт даражаси ва сифатини ошириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд. –60 б.*

Гаврилова, В.Н. (2014) *Формирование комплекса услуг торговых розничных сетей [Текст]/В.Н. Гаврилова // Вестник Самарского государственного экономического университета. Самара, № 10 (120). С. 44-49.*

Мукимова, Ў., & Ахмеджанова, Ф. (2022). *Инновацион иқтисодиёт шароитида савдо хизматларининг сифатини такомиллаштириш йўллари. Iqtisodiyot va ta'lim, 23(6), 507–513. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/887>*

Ньюмен, Э. (2005) *Розничная торговля: организация и управление / Э. Ньюмен, П. Кален; пер. с англ. под ред. Ю. Каптуревского. – СПб.: Питер, – 416 с.*

Попов Дмитрий Алексеевич, Синюков Василий Алексеевич. (2011) *Форматы розничных торговых предприятий и их услуги // Российское предпринимательство. №2-1. 128-133.*

Фармон (2024) *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 16 феврал 2024 йилдаги ПФ-36-сон “Республикада озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” Фармони.*